



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI
SAMARQAND TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

140300, Samarqand t., Gulobod qo‘rg‘oni.

2021 - yil 16 - noyabr

68-7-103-Q/21

Samarqand tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 576-sonli hamda Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 19-oktabrdagi 88-7-0-Q/21-sonli shu haqdagi qarorlari ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 576-sonli hamda Samarqand viloyat hokimining 2021-yil 19-oktabrdagi 88-7-0-Q/21-sonli shu haqdagi qarorlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (F.Ganiev, A.Islomov, Sh.Hasanov) sektor rahbarlari, tegishli korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini quyidagilardan boshlasin:

tuman aholisini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun barcha hududlarda maqbul narxlarda oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish;

“Temir daftar”larga kiritilgan oilalarga ko‘mir, suyultirilgan gazni o‘z vaqtida yetkazib berish va bolalarni issiq kiyim-kechak bilan ta‘minlash;

olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarda hamda sel kelishi oqibatida yo‘llar talofat ko‘rishi ehtimoli mavjud qishloqlarga ko‘mir va suyultirilgan gaz hamda

kamida 15-20 kunga yetadigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish.

3. Quyidagilar:

tuman iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarini va ko‘p kvartirali turar-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga;

tuman iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda-tuman komissiyasi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman komissiyasi (A.Islomov)ga:

zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 576-sonli qarori bilan tasdiqlangan parametrlarga tumandagi tegishli tashkilotlarning asoslangan takliflari asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat komissiyasiga takliflar kiritib borilsin;

2021/2022-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati yuzasidan har oy yakuni bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazib, mas‘ul korxonalar va tashkilotlar hisobotlari eshitilib borilishini;

mazkur qaror bilan belgilangan parametrlarni bajarishga mas‘ul bo‘lgan tegishli tashkilotlar rahbarlari belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarmagan yoki qoniqarsiz bajargan taqdirda ularga nisbatan o‘rnatilgan tartibda intizomiy jazo choralari qo‘llash masalasi bo‘yicha taklif kiritsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Islomov, Sh.Hasanov)ga;

bir hafta muddatda tumanda komissiya tarkibiga kiritilgan korxonalar va tashkilotlarning rahbarlaridan iborat hududiy ishchi guruhlar tashkil etsin va ular tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni mahallalar kesimida belgilab bersin;

har bir mahallalarda xalq bilan muloqot tarzida o‘tkaziladigan uchrashuvlarda mazkur qaror bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik va uni talafotsiz o‘tkazish

bo'yicha belgilab berilgan parametrlarning bajarilishi yuzasidan aholiga hisobot berib borish tizimini yo'lga qo'ysin.

6. Tuman komissiyasi, hududiy ishchi guruhlar a'zolariga qishloq aholi punktlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha belgilangan parametrlar va chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy mas'uliyat yuklansin.

7. Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali (v.v.b A.Xamroyev), "Tuman hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ (A.Shukurov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'lim (F.Ganiev)lari bilan birgalikda:

elektr va tabiiy gaz qurilmalarini ta'mirlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash, issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga yoqilg'i resurslarini uzluksiz yetkazib berish;

aholiga, ijtimoiy soha obyektlariga, boshqa toifadagi iste'molchilarga zarur miqdorlarda energetika resurslarini yetkazib berish bo'yicha muntazam ravishda "mahallabay" tizimda o'rganishlar olib borib, ajratilgan resurslarni yetkazib berish choralarini ko'rsin.

8. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Ganiev), tuman Moliya bo'limi (Sh.Voseyev) bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan tasdiqlangan hududlarda tashqi sanitariya-gigiyenik uzellari talab darajasida bo'lmagan ko'p kvartirali sanitariya-gegiyenik holatlarini yaxshilash parametrlarida belgilangan tadbirlarning loyiha-qidiruv ishlari harajatlarini mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan 2021-yil 10-noyabrga qadar moliyalashtirsin.

9. Tuman komissiyasi (A.Islomov)ga:

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni talafotsiz o'tkazish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat komissiyasiga kunlik ma'lumot taqdim etib borsin;

kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni talafotsiz o'tkazish yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga har oyda hisobot berib borilishini hamda tuman hokimligi Axborot xizmati (B.Xonkeldiev) tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilib borsin.

10. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Islomov) zimmasiga iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha parametrlar va chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash yuklansin.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2020-yil 11-yanvardagi 11-K-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin

12. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, A.Islomov zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Туман ҳокими



Н.Мавлонов

Самарқанд туман ҳокимининг
2021 йил 16 ноябрдаги
68-7-103-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali turar-joy fondini 2021/2022-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo‘yicha

KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
I. Tashkiliy chora-tadbirlar			
1.	2021/2022-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha hududlarni “qizil”, “sariq” va “yashil” hududlarga ajratish. Bunda, aholi punktlarini “qizil” hududga kiritishda elektr energiyasi va tabiiy gaz ta’minotidagi muammolar mavjud, uy-joy mulkdorlari shirkatlarining moddiy-texnika bazasi va moliyaviy holati “og‘ir”, xalq qabulxonalariga kommunal xizmatlar yuzasidan ko‘p murojaatlar tushgan, shuningdek, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlarni nazarda tutish.	Bir hafta muddatda	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (R.Xayrullayev), “Samarqandtumangaz” gaz ta’minoti filiali (A.Xamroyev), “Samarqand tumani elektr ta’minoti” korxonasi (A.Shukurov), tegishlilar bilan birgalikda

2.	Tuman va aholi yashash punktlarida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari hamda ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta'minoti qozonxonalari, muhandislik-kommunikatsiya obyektlari va jihozlarini ta'mirlash, iste'molchilarga suyultirilgan gazni (ovqat pishirish uchun) barqaror yetkazib berish, shuningdek, chekka hududlarda yashovchi aholini ichimlik suvining muqobil manbalari (shu jumladan, tashib keltiriladigan suv) bilan ta'minlash bo'yicha mas'ul ijrochilar va bajarish muddatlarini aniq belgilagan holda chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	Uch kun	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), tuman xalq ta'limi bo'limi (B.Mardonov), tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi (O.Marupov), tuman tibbiyot birlashmasi (T.Mexmonqulov), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), "Samarqand suv ta'minoti" MChJ Samarqand tuman filiali (A.Fayzikulov), "Samarqand tumani elektr ta'minoti" korxonasi (A.Shukurov), tegishlilar bilan birgalikda
3.	Iqtisodiyot tarmoqlarini 2021/2022-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan gaz kondensati, suyultirilgan gaz, ko'mir, texnik tuz va boshqa yuklarni yetkazib berish bo'yicha chora- tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2021-yil 25-oktabrga qadar va mavsum davomida	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov) "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), "Samarqand tumani elektr ta'minoti" korxonasi (A.Shukurov), tegishlilar bilan birgalikda
4.	Maishiy gazdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan favqulodda hodisalarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2021-yil 25-oktabrga qadar va mavsum davomida	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (J.Raxmonov), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), "Samarqand tumani elektr ta'minoti" korxonasi (A.Shukurov), tegishlilar bilan birgalikda

5.	Ishlab chiqarish va yetkazib berish balansini hisobga olgan holda 2021-yil oktabr oyidan 2022-yil aprel oyiga qadar bo'lgan davr mobaynida ulgurji iste'molchilar va aholiga tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha kelishilgan oylik jadvalni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi (F.Ganiyev), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev)
II. Yoqilg'i-energetika majmuasini barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
6.	Kuz-qish davrida qozonxonalarning barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida soha tashkilotlari tomonidan zarur suyuq va qattiq yoqilg'i zaxirasini yaratish.	2021-yil 1-noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), tegishlilar bilan birgalikda

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
7.	Aholi, ijtimoiy soha obyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarining ko'mirga bo'lgan talabini to'liq qanoatlantirish, jumladan, aholi ehtiyojlari uchun 6696 tonna, ijtimoiy soha tashkilotlarini 1696 tonna ko'mir mahsulotlari bilan ta'minlash.	2021-yil 1-dekabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi (F.Ganiyev)
8.	Iste'molchilarga tasdiqlangan oylik jadvalga asosan kuz-qish mavsumida 2472.5 tonna, jumladan, joriy yil oktabr-dekabr oylarida 1253,3 tonna suyultirilgan gazni yetkazib berish.	2021-yil 1-noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), tegishlilar bilan birgalikda
9.	Shakllantirilgan ro'yxatlar asosida kuz-qish davrida tabiiy gaz ta'minotining tanqisligi kutilayotgan aholi punktlariga tasdiqlangan oylik jadvalga asosan kuz-qish mavsumida joriy yil oktabr - 2022 yil mart oylarida 2472.5 tonna suyultirilgan gazni kafolatlangan tarzda yetkazib berish.	2021 yil 1 noyabrdan 2020 yil 1 aprelga qadar	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev)

10.	Olis va borish qiyin bo'lgan hududlarda hamda sel kelishi oqibatida yo'llar talofat ko'rishi ehtimoli mavjud qishloqlarda kuz-qish mavsumi uchun zarur miqdorda yoqilg'i-energetika resurslari zaxirasini yaratish.	2021-yil 1-yanvar	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), tegishlilar bilan birgalikda
III. Ko'p kvartirali uy-joy fondini tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
11.	Tumandagi ko'p kvartirali uy-joy fondini ta'mirlash ishlari bo'yicha haqiqiy ehtiyojni hisobga olgan holda joriy yilda moliyaviy ahvoli barqaror bo'lgan ko'p kvartirali uylarni boshqaruvchi tashkilotlar va uy-joy mulkdorlari shirkatlarini qo'llab-quvvatlash uchun tegishli manbalardan talab etiladigan mablag'larning aniq miqdorlarini belgilash.	Zaruratga ko'ra	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), tuman Moliya bo'limi (Sh.Voseev), tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi (F.Ganiyev)
12.	Ko'p kvartirali uy-joy fondini ta'mirlash uchun qarzdorligi mavjud bo'lmagan uy-joy mulkdorlari shirkatlariga zarur miqdorlarda kreditlar ajratish hamda kreditlardan maqsadli foydalanish yuzasidan doimiy monitoring olib borish tizimini yo'lga qo'yish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), tegishlilar bilan birgalikda
13.	Respublika byudjeti va mahalliy byudjet, bank kreditlari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari mablag'lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ko'p kvartirali uylarda ta'mirlash ishlarini sifatli amalga oshirish. Jumladan: 3674 m.kv uylarning tom qismini, 14 ta kirish yo'laklarini ta'mirlash, 14 ta qulfli temir eshiklar o'rnatish, 4 ta ichki muhandislik tarmoqlarini ta'mirlash, 2 ta ko'p kvartirali uylarni fasad qismini ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.	2021 yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), tegishlilar bilan birgalikda

14.	Ko'p kvartirali uylar, bino va inshootlarning yong'inga qarshi xavfsizlik texnik me'yorlariga mosligi holatini tekshirib, ko'p xonadonli uylardagi dudburonlar va shamollatish tizimlarini ta'mirlash, izolyatsiya qilish va tozalash ishlarini amalga oshirish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), "Samarqandtumangaz" gaz ta'minoti filiali (A.Xamroyev), tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi (J.Raxmonov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), tegishlilar bilan birgalikda
15.	Markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti tizimiga ulanmagan ko'p kvartirali uylarni xatlovdan o'tkazish va mavsumda ushbu uylarni isitish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2021-yil 1-noyabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), tegishlilar bilan birgalikda
16.	Iste'molchilarni ishonchli va xavfsiz elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida ko'p kvartirali uylarda elektr energiyasidan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya etilishi holatini o'rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov), tuman Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi (R.Xayrullayev), "Samarqand tumani elektr ta'minoti" korxonasi (A.Shukurov), tegishlilar bilan birgalikda

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
IV. Ichimlik suv ta'minoti obyektlarini tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
17.	Ichimlik suvi tarmoqlari va nasos uskunalari mukammal joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov) "Samarqand suv ta'minoti" MChJ Samarqand tuman filiali (A.Fayzikulov), Tegishlilar bilan birgalikda

V. Ijtimoiy soha obyektlarinn barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar			
18.	Ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish. Umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, shifoxona va poliklinikalar hamda jismoniy tarbiya va sport obyektlarini joriy ta'mirlash, muassasalarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosarlari (A.Islomov,), tuman xalq ta'lim bo'limi (B.Mardonov), tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi (O.Marupov), tuman tibbiyot birlashmasi, (T.Mexmonqulov), tegishlilar bilan birgalikda
19.	Koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish bo'yicha tashkil qilingan maxsus shifoxonalar va vaqtinchalik karantinda saqlash majmualarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov). tuman tibbiyot birlashmasi, (T.Mexmonqulov)
20.	Byudjet tashkilotlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun zarur byudjet mablag'larini ajratish. Jumladan: ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash uchun tuman mahalliy byudjetidan belgilangan mablag'larning o'z vaqtida ajratilishini ta'minlash, ijtimoiy soha obyektlariga qo'shimcha talab qilinadigan ko'mir harajatlarini aniqlash va qoplab berish choralarini ko'rish.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Ganiyev), tuman Moliya bo'limi (Sh.Voseev), tegishlilar bilan birgalikda

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
VI. 2021/2022-yillar qish-bahor mavsumi uchun asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini g'amlash bo'yicha chora-tadbirlar			
21.	Moliyaviy ahvoli barqaror bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga bank kreditlari o'z vaqtida ajratilishi va ularning maqsadli ishlatilishini ta'minlash.	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Ganiyev), tegishli tijorat banklari

22.	Muxtoj oilalarni kuz-qish mavsumida zarur oziq-ovqat va dori vositalari zahiralari bilan ta'minlash.	2021-yil 25-oktabr	Tuman hokimining o'rinbosari (Sh.Xasanov), tuman tibbiyot birlashmasi, (T.Mexmonqulov), tegishlilar bilan birgalikda
VII. Chora-tadbirlar bajarilishini nazorat qilish			
23.	Komissiya tomonidan 2021/2022-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holati yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni viloyat shtabiga taqdim etib borish.	Har hafta yakuni bilan	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Islomov)
24.	Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning holati va natijalarini, jumladan mavsumga tayyorgarlik ko'rish va mavsum davomida kamchiliklarga yo'l qo'ygan tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish.	Doimiy	Tuman hokimining axborot xizmati-matbuot kotibi (B.Xonkeldiyev)

Самарқанд туман ҳокимининг
2021 йил 16 ноябрдаги
68-7-103-Q/21-сон қарорига
2-илова

**Tuman iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soxa obyektlari va ko‘p kvartirali
uy-joy fondini 2021/2022-yillar davrida barqaror ishlashga tayyorlashni
muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman komissiyasi**

TARKIBI

T/r	F.I.Sh	-	Lavozimi
1.	A.Isломov	-	Tuman hokimining o‘rinbosari, komissiya raisi
2.	R.Xayrullaev	-	Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi, komissiya raisi o‘rinbosari
3.	J.Raxmonov	-	tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
4.	Sh.Voseev	-	Tuman hokimligi Moliya bo‘limi boshlig‘i
5.	I.Rashidov	-	tuman Qurilish bo‘limi boshlig‘i
6.	T.Mexmonqulov	-	tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
7.	B.Mardonov	-	tuman xalq ta‘limi bo‘limi mudiri
8.	O.Marupov	-	tuman Maktabgacha ta‘lim bo‘limi boshlig‘i
9.	Xursand G‘ozieva	-	tuman madaniyat bo‘limi boshlig‘i
10.	F.Ganiyev	-	Tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i
11.	S.Boboiev	-	“Samarqandtumangaz” gaz ta‘minoti filiali boshlig‘i
12.	A.Shukurov	-	“Samarqand tumani elektr ta‘minoti korxonasi” boshlig‘i
13.	A.Fayzikulov	-	“Samarqand suv ta‘minoti” MChJ Samarqand tuman filiali boshlig‘i
14.	L.Burxonov	-	Tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi mutaxassisi, komissiya kotibi

Izoh: Zarurat bo‘lganda qo‘shimcha mutaxassislar jalb etiladi